

## FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI TO'G'RIDAGI QONUNNING IJTIMOIIY JIHLTLARI

**Xushbakov Sho'hratjon Baxtiyor o'g'li**

*Samarqand Davlat Unversiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi*

**Sevara Rahmonova Abdusattor qizi**

*Samarqand Davlat Unversiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur tezisdal fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish qonuning ijtimoiy jihatlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini muvofiq lashtirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** fuqaro, konstitutsiya, yuridik shaxs huquqlari, demokratiya, mahalla, jamiyat, fuqoro, tizim.

**Аннотация:** В данной диссертационной работе подробно описаны социальные аспекты закона о самоуправлении граждан, координации деятельности органов самоуправления граждан, а также финансовая основа деятельности органов самоуправления граждан.

**Ключевые слова:** гражданин, конституция, права юридического лица, демократия, соседство, общество, гражданин, система.

**Abstract:** This thesis describes in detail the social aspects of the law on self-government of citizens, the coordination of the activities of self-government bodies of citizens, and the financial basis of the activities of self-government bodies of citizens.

**Key words:** citizen, constitution, legal entity rights, democracy, neighborhood, society, citizen, system.

Dunyoda davlatlar ko'p, tuzumlar va boshqaruv usullari ham shunga ko'ra turlicha yoki bir biriga yaqin bo'lishi mumkin. Buning sababi esa oddiy. Bugungi kunda

dunyoning ko'pgina davlatlarida demokratiya hukm surmoqda va bunga esa xalqaro miqyosda e'tirof qilingan huquqlar va qonunlarga to'g'ri keluvchi konstitutsiyalar yordamida erishilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublika konstitutsiyasi ham dunyoning ko'pgina demokratiya taraqqiy etgan davlatlari konstitutsiyasini o'rganish va uni yurtimiz muhitiga moslash yordamida vujudga kelgan. Ammo shu bilan birga shuni alohida ta'kidlash mumkinki, hech bir mamlakatning konstitutsiyasida uchramaydigan ayrim holatlar bizning konstitutsiyamizda alohida qayt etib o'tilgan.

O'zini – o'zi boshqarish organlaridan birni mahalla deb oladik bo'lsak, u o'z hududidagi fuqorolarning muommolarini yechish bilan va ularning ijtimoiy barqaror bo'lishlari uchun sharoitlarni yaratadi. Mahalla tizimida 5lik deb ataladiga tizim joriy etilgan. Bularga mahalla oqsoqoli ya'ni rais, profilaktika inspektori, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi va xotin – qizlar faoli. Ularning har biri o'z vazifasini mukammal bajarishga harakat qilishmoqda. Bu tizimning joriy bo'lishi mahalla tizimlaridagi o'zgarishlarning unumli ekanligi ko'rinib turmoqda. Bularning barchasi xalq farovonligi uchun qilinmoqda. Mahalladagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning muommolarini hal etish, ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish sifati ko'tarilgan. Jamiyatizim ham ushbu tizimdan rozi ekanligini bevosita bildirib o'tishdi. Hozirda ushbu tizimni yanada takomillashtirish uchun mahalladagi beshlik tizimini isloh etib, uni yettilik tizimiga o'zgartirish ko'rib chiqilmoqda. Bu esa ijtimoiy sohani kundan – kinga yanada rivoj topayotganini anglatadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, namunadagi muhrga ega bo'ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinishi zarur bo'ladi. E'tibor beriladigan bo'lsa masalaning eng qiziq tomoni ham shunda. Chunki agar bu organ mahalliy davlat hokimiyatini amalga oshirsa u o'zini o'zi boshqaruvchi subyekt bo'lmasdi, shu tufayli ham bu organga yuridik shaxs maqomi berilgan va bu organ huddi jamoat birlashmasi kabi faoliyat yuritadi. Faqatgina ayrim masalalarda jamoat birlashmasidan farqli tomonlari namoyon bo'ladi

va huquqlari kengaytirilganligi bilan farqlanadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish niyatida respublika oqsoqollar Kengashi, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish faoliyatlari bo'yicha viloyat, tuman, shahar muvofiqlashtirish kengashlari tuzilishi mumkin va bu holat odatda ushbu sohani boshqarish va tartibga solishga yordam beruvchi ijobiy vosita sifatida qaraladi. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, qonun loyihasining 9-moddasida Fuqarolar yig'inlari faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy qilish uchun fuqarolar yig'inlari geografik joylashuvi va aholisi soni bo'yicha toifalarga ajratilgan. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishga doir huquqlarini cheklash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga davlat organlari va tashkilotlari, hamda ularning mansabdor shaxslari aralashuviga yo'l qo'yilmaydi

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi o'z mablag'laridan, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan belgilangan tartibda ajratiladigan byudjet mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayir-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag'lar hisobida ta'minlanishi mumkin bo'ladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. -T.; JIDU, 2010.
2. "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida" gi Xalqaro Pakt // Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar to'plami. Mas'ul muharrir Saidov A. -Toshkent: Adolat, 2004
3. Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2020.
4. Jiyanmuratova G.SH. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati sharoitida yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligi dinamikasi // Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. – 2020.